

ELEKTRON XIZMATLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING DOLZARBLIGI

Yunusov Murodjon Ne'matillo o'g'li
Andijon Mashinasozlik Instituti
“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Bugungi kunda respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida, tijorat banklarining yangi innovatsion elektron xizmatlariga talabi yanada ortgan. Aholi o'rtasida bank binosiga bormasdan, birgina telefon, kompyuter yoki boshqa informatsion texnologiyalar orqali ko'plab amaliyotlarni bajarish imkoniyati ommalashgan. Shuningdek, tanlangan tashkilotning mobil ilovasi yoki rasmiy saytiga kirib, kerakli ma'lumotni olish, turli to'lovlarni amalga oshirish, buyurtma berish va shikoyat yoki e'tirozlar yo'llash mumkin. Hozirda elektron bazaga jamlangan axborotlarning rakamlashtirilganligi natijasida avvallari ma'lum muddat kutishga to'g'ri keladigan bank amaliyotlarini bir necha soniyada o'tkazish imkonini beruvchi dasturlar, qurilmalar yaratilgan. Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish Markaziy banklarning bosh maqsadiga aylangan. Inflyatsiyaning yuqori darajada namoyon bo'lishi iqtisodiy o'sishning sekinlashiga va aholi daromadlarining real qiymatining tushib ketishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2024 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2026 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni o'rnatish orqali 2024 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Bunga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 13 sentabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3272-sonli Qarori asos bo'lganligini ta'kidlashimiz lozim. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun avvalo ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali yuksalish yo'lidan borishimiz kerak. Buning uchun jamiyatimizning barcha

qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasidagi savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borishimiz zarur. Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2018 yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo'yicha "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko'zda tutuvchi "Raqamli iqtisodiyot milliy Kontsepsiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi ilgari surilgan edi. 2020 yil 5 oktabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "PF6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ham raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishni rivojlantirishda huquqiy asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda biznesni raqamlashtirish faqat elektron hujjat aylanishiga o'tish bilan cheklanib qolmaydi. Raqamli transformatsiya haqida gap ketganda, biz ishlab chiqarish madaniyati va korxonalarni boshqarish uslubini o'zgartirishga imkon beruvchi zamonaviy texnologiyalarning majmuini nazarda tutamiz. Raqamli yechimlar tufayli dunyodagi ko'pgina kompaniyalar xodimlar va sanoatdagi uskunalar samaradorligini oshirmoqdalar. Shu bilan birga, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish va biznes olamidagi raqiblariga nisbatan muvaffaqiyatga tezroq erishadilar. Raqamli transformasiya jarayonini davlat tashkilotlari, korxonalar, biznes-tuzilmalarida axborot texnologiyalarni oddiy joriy etish deb hisoblamasliklari kerak. Shuningdek korporativ veb-saytni, Telegram botni, mobil ilovani ishlab chiqish va

ishga tushirish va ijtimoiy tarmoqlarga kirish, tashkilotlar o'zlarini raqamli deb hisoblashiga imkon berishiga ishonish noto'g'ri. Aslini olganda, raqamli transformasiya haqida gapirganda bu yangi texnologiyalarga investisiya kiritishni o'z ichiga olgan muayyan tashkilot yoki korxonaning barcha mavjud modelini, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga, rivojlanish strategiyasiga, mijozlar bilan ishlashga, mahsulotlarni ilgari surish va xizmat ko'rsatish usullari, va hatto korporativ madaniyat kabi o'zgarishlar to'plami ekanligini tushinish kerak.

Raqamli transformatsiya – bu zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun xodimlarning qanday ishlashini qayta ko'rib chiqishdir.

Hozirgi kunda raqamli transformasiya deyarli har qanday faoliyat sohasiga taalluqlidir. U ta'limga keldi va biz zamonaviy maktablar, kollejlar va OTM lari interfaol doskalardan foydalanayotganini, o'quvchilar elektron kundaliklarni yaratishni, audio va video-tarkibini yaratishni, qo'shma loyihalarni amalga oshirayotganini, o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali maslahat berayotganini va hokazolarni ko'rmoqdamiz. Zamonaviy texnologiyalar an'anaviy ta'lim bilan o'qitishni amalga oshirib bo'lmaydigan usullardan foydalanishga imkon berayotganidan mamnunman, ya'ni AT tobora o'sib kelayotgan avlod uchun muhim tafakkur vositasiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish sohasida tijorat banklarining korporativ transformasiyasi jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to'lovlarning soni va qamrovini kengaytirish;
- skoring, masofadan turib identifikasiyalash va kredit konveyeri tizimidan keng foydalanish;
- bank axboroti va tizimlarning axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sektorida yangi kontsepsiyalar va texnologiyalarni keng joriy etish (fintek, raqamli banking).

International Conference on Education and Innovation

Biz bank sohasida raqamlashtirish uchun etarli tajriba orttirdik va so‘nggi bir necha yil davomida ushbu yo‘nalishni faol ravishda qo‘llab-quvvatladik. Joriy yilning o‘zida o‘n bitta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi, ulardan – yetti nafari mamlakatimiz banklarida. Xususan, ATB “Qishloq Qurilish Bank” da axborot xavfsizligi vazifalarini kompleks hal etish bo‘yicha yirik loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shunday qilib, bankka AT-infratuzilmani monitoring qilish va tarmoq infratuzilmasini boshqarish uchun dasturiy ta‘minot yetkazib berildi va joriy etildi.

Tavsiya etilgan yechim bankning barcha AT-infratuzilmasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni proaktiv boshqarish bilan ajralib turadi, uning jismoniy samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni [PF-25-son].
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3272-sonli Qarori
3. Ravhan Hamidovich Ayupov “Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar “ O‘quv qo‘llanma Toshkent –2020.
4. Melanie Swan. Blockchain: Blueprint for a New Economy, 2018, 152 pages.
5. www.wikipedia.uz
6. <https://zenodo.org/records/5813613>